

Hosilni teramiz



Kuz – qirmizi olmalar, tillarang noklar, xushbo'y va mazali qovun-tarvuzlar g'arq pishgan fasl. Tabiat bu faslda shunchalik ko'p rang va shakllarni tuhfa qiladiki, ularning barchasini xotirada saqlab qolging keladi.



Bugun biz noodatiy material – **paxtali yostiqlardan** applikatsiya tayyorlaymiz. Ular yumshoq, yengil bo'lib, hajmli mevalarni yasash uchun juda qulay.



2



Sizga kerak bo'ladi:



- rangli qog'oz;
- bo'yoqlar va mo'yqalam;
- qaychi;
- qalam;
- yelim;
- paxtali yostiqlar.

Ish rejasi:

- 1. Paxtali yostiqlchalarni bo'yaymiz.** Olma va noklar uchun mos rangni tanlang va paxtali yostiqlchalarni bo'yang. Ular quriguncha kuting.
- 2. Savatchani tayyorlaymiz.** Uni yasash uchun jigarrang qog'ozlarni yarimoval shaklida qirqib oling.
- 3. Mevalarni yasaymiz.** Paxtali yostiqlchalar quriganidan keyin mevalarni yasashga kirishing. Ularga barg, shoxcha, bezak kabi detallarni qo'shing.
- 4. Applikatsiyani yig'amiz.** Qog'ozga savatni yelimlang. So'ng ehtiyotkorlik bilan mevalarni savatga yopishtiring. Ularni did bilan joylashtiring!

